

## Diniy ekstremizm – yoshlar kelajagiga tahdid

Insoniyat hayotiga qutqu soluvchi illatlardan biri diniy ekstremizmdir. 2018 yil 5 dekabr kuni “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasidan 3-TTJda “Diniy ekstremizm – yoshlar kelajagiga tahdid” mavzusiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi. Tadbir mas’ullari dos. Sh.Ch.Botirov, dos. S.A.Kasimbetova, ass. G.T.Axmedjonova, ass. D.O.Abduraimova, ass. D.G.Yulchiyev, ass. A.Dolidudko, ass. M.S.Hayitova, staj.o‘qituvchi Sh.Azizov.

Tadbirda talaba yoshlarga bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, qonli to‘qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli oqimlar o‘rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdimot hamda videorolik orqali tushuntirib berildi. Shu bilan bir qatorda talabalarga tinch va osuda hayotimizni tinchligini asrash har bir insonning burchi ekanligi va doimo ogoh bo‘lishimiz zarurligi izohlandi. Tadbir juda qiziqarli va savol javoblarga boy tarzda o‘tdi.



**“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasidan staj.o‘qit. M.Hayitova axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**